

Murakami Harukining “1Q84” romanida oila obrazi

著者	Hitoshi Ishida, O‘zbek tiliga tarjima : Juraeva Malika
journal or publication title	International Culture and Communication Studies
volume	5
page range	71-83
year	2022-03
URL	http://doi.org/10.34428/00013455

論文

Murakami Harukining “1Q84” romanida oila obraz

Hitoshi Ishida

(Toyo University)

O‘zbek tiliga tarjima : Juraeva Malika

(Uzbekistan State World Languages University)

1. Doim tuxumning tarafida

Murakami Haruki 2009-yilning 15-fevral kuni Quddus mukofotini olish paytida quyidagicha nutq so‘zladi.

“ Baland mustahkam devor va unga urilib sinuvchi tuxumni olsak, men doim tuxum tarafida bo‘laman (qisqartma). Har birimiz ozmi - ko’pmi tuxummiz. Har birimiz nozik po’stloqqa o’ralgan, o’xshashi yo’q qalbga egamiz. Men ham shunday, siz ham. Barchamiz bazida baland, mustahkam devorga duch kelamiz. Bu devorning nomi “Sistema”. Sisitema aslida bizni himoya qilishi kerak. Ammo bazida u mustaqil bo‘lib olib bizlarni halok qiladi, bizni boshqa odamlarni halok qilishga majburlaydi. Sovuqqonlik bilan, muntazam ravishda”.

Murakami Haruki bu nutqini so‘zlaganida, allaqachon “1Q84” romanini yozishni tugatib, uni tahrirlash jarayonida edi. U nutqida “nozik po’stloqqa o’ralgan, o’xshashi yo’q qalb egasi, tuxum” tarafida bo‘lishini aytib, bu o’xshatish “bizga”, ya’ni insonlarga tegishli ekanligini ta’kidlaydi. Bu so‘zlar “1Q84” romanining qahramonlariga ham tegishli deb o’ylayman. Murakami Haruki nutqining so‘ngida otasining o’tgan yili 90 yoshida vafot etganini aytgach, quyidagicha davom etadi.

“Har birimiz millat, irq va dinimizan qat’iy nazar individual insonmiz. Barchamiz sistema deb ataluvchi mustahkam devor qarshisida turamiz. Bizga devorni yengishga umid yo’qdek tuyuladi. Devor haddan tashqari kuchli, baland

va sovuq. Bizlarda kichik bir umid mavjud bo'lsa ham, u o'zimiz va boshqalar qalbining o'xshashsizligiga ishonish va shu qalblarni birlashtirishdan hosil bo'lgan haroratdan paydo bo'ladi.

Murakami Haruki "O'zimiz va boshqalar qalbining o'xshashsizligiga ishonish va shu qalblarni birlashtirish"dan umid paydo bo'ladi deb aytadi. Umid "millat, irq va dind" dan qat'iy nazar har bir insonda mavjud bo'lsa, u insonning asosi bo'lishi lozim. Aynan shu narsa "1Q84" romanida aks ettirilgan dunyodir.

2. Zo'ravonlik qoldirgan iz

Men "1Q84" asarini "tuxum" tarafida turib o'qigan yaxshi deb o'ylayman. Noto'g'ri tushunilishdan cho'chimasdan aytadigan bo'lsam, asar qahramonlari bo'lmish Tengo va Aomame keng ma'noda, bolalikda zo'ravonlik qurbanlari bo'lishgan. Aynan shu qismisiz men bu asarni tasavvur qila olmayman. Aytish kerakki, bu ikki qahramon o'z ota –onasi tomonidan jismoniy, jinsiy, ruhiy zo'ravonlik yoki loqaydlik qurbanlari bo'lishmagan. Zo'ravonlik qurbanini deb aytish mumkin bo'lgan yagona shaxs , Aomame bilan tanishgandan so'ng o'ldirilgan Nakamura ismli qizdir. Bu qiz, 10 yoshga to'lgunga qadar amakisi va o'z akasining jinsiy buzuqligidan jabr ko'rganini Aomamega aytib beradi. (1-KITOB 23-bob). Tengo va Aomame "10 yosh"ida o'z xohishi bilan ota-onasining tarbiyasi ostidan chiqib ketishadi. Bu albatta noodatiy hol. Tengoni bu ishga undagan sabab: otasining "pul yig'ish" ishida o'g'lini doim o'zi bilan "majburlab" olib yurishi, Aomame esa ota-onasining "missionerlik faoliyati" da "majburan" qatnashishi edi. Bu yerdagi umumiylilik, har ikkalasining ota-onasi tomonidan amalga oshirilgan kuchli majburlovdır. Tengo har hafta yakshanba kuni NHK televideniyesining ishchisi bo'lgan otasi bilan pul yig'ish uchun borishga majbur edi. "U bog'cha yoshidan boshlab, to 5- sinfga qadar, maktabning yakshanba kundagi tadbirlarini hisobga olmaganda, bir kun ham

qoldirmay borar edi” deb asarda yozilgan. (1-KITOБ 8-bob). Shu sababdan Tengo do’stlari bilan o’ynay olmay, do’stlari ham undan uzoqlashib boradi. Bunday holat Tengoga “tanasida og’riq his qilib, ko’ngli behuzur bo’ladigan darajada” gi nafratni singdirib, 29 yoshga to’lganda ham yakshanba kuni kelishi bilan o’sha nafratning o’z –o’zidan qaynashi uning ong osti holatiga o’rnashib qolgan edi. U altsgeymer kasalligiga chalingan otasini 2 yildan so’ng ko’rishga borganida quyidagi so’zlarni aytadi.

“Menda do’st yo’q. Aqalli bitta ham. Eng asosiysi, men hatto o’zimni sevishni ham bilmayman. Nima uchun? Chunki men birovlnarni sevishga qodir emasman. Inson birovni sevish va sevilish orqali o’zini sevishni o’rganadi”. (2-KITOБ 8-bob)

Bu gapida Tengo o’zini seva olmasligi, o’zini qabul qila olmasligi uchun norozi. Unda bu hissiyotlarning yo’qligiga 10 yoshgacha “otasi”ning unga bo’lgan munosabati, (onasi Tengo go’dakligida vafot etgan) uning tarbiyasi, ya’ni <oila>ning ta’siri kuchli. Aslida, o’zlikni seva olmaslik va qabul qilmaslikka bo’lgan moyillik, bolalikda zo’ravonlik qurboni bo’lgan shaxslarda ko’p uchraydi. Hozirgi paytda bolalarda zo’ravonlik, asosan ota-onva farzand o’rtasida sodir bo’lib, ota-onaning “yaxshi tarbiya” bahonasida zo’ravonlik qilish holatlari ko’p uchraydi. Ota-onva doim haq, bola esa nohaq deb singdirilib, bunday munosabat bolaning ruhiy rivojlanishiga to’sqinlik qiladi. Natijada zo’ravonlik ko’rgan farzand ota-onasi (yoki kattalar) tomonidan ishonch, mehr kutadi va “o’zini hech kimga keragi yo’q”, “noto’g’ri mavjudlik” deb his qiladi. Bazi dahshatl hollarda, ota-onasini erkakashini istab yoki zo’ravonlik natijasida his qilgan ozorlari va nafratlarini miyasida alohida xotiralarga ajratib, ko’pshaxslilik sindromi kasalligi ham kelib chiqadi. Bundan tashqari, zo’ravonlik qurboni bo’lgan shaxs o’zini qabul qilmay turib ota-onva bo’lsa, endi o’z farzandlariga zo’ravonlik qilishi mumkin. Bu “zo’ravonlik zanjiri” deb ataladi.

Tengo oshkora zo'ravonlikni ko'rмаган. Ammo, onasiz Tengoning suyanishi mumkin bo'lган inson birgina "отаси" bo'lib, u sevishni faqat otasidan o'rganishi mumkin edi. Tengoning otasi o'g'lining tarbiyasidan voz kechmadi, ammo undan tashqari unga hech narsa bermadi.

Xuddi shunday (yoki undanda qayg'uliroq) holat Aomamedha ham yuz berdi. Aomame "Shoninkai" ("Guvoхlar") deb ataluvchi diniy guruh a'zosi bo'lган ota-onasi tomonidan kuchli ta'sir ostida tarbiyalandi.

Tengo boshidanoq, har hafta so'ngida onasi bilan birga diniy faoliyat olib boradigan qizga qiziqib qoladi. "Shoninkai" ("Guvoхlar") diniy guruhiга kiruvchi oilalarda farzand yurishni boshlasa, o'sha kundan boshlab u ham diniy tadbirda qatnashishi shart edi. (1-KITOB 12-bob).

Aomamega bolalik davridan boshlab "tiyilish va chegaralanish" uqtirilib, "televizor ko'rish yoki gazeta o'qish man etilar", "go'sht va baliq ayrim hollardagina tanavvul qilinar", "Kiyim-kechak doim birovdan qolgan" bo'lib, "uning hayoti atrofdagilardan keskin farq qilgani sababli uzoq vaqt davomida bitta ham do'sti yo'q edi". (1-KITOB 15-bob). Shuning uchun "u ota-onasi va o'zi kechirayotgan turmush tarzidan qattiq nafratlanar edi. U boshqalar singari oddiy hayotda yashashni xohlar edi". (avvalgi bob). U 10 yoshga to'lgandan so'ng "dindan chiqish" haqidagi fikrini oshkor qilganida onasi uni kechirmadi, "qizi bilan gaplashishdan butunlay voz kechdi, ehtiyoj tug'ilganda qog'ozga yozib uzatar, ammo qizi gapirganda eshitmas edi". (1-KITOB 13-bob). Onasining bu harakatini — farzandi mavjudligini rad etish kabi ruhiy zo'ravonlik deb aytish mumkin.

Ikki qahramondagi umumiyl, ota-onasi tomonidan qilingan shavqatsiz hukmronlik jismoniy zo'ravonlik bo'lmasa ham, bu ikki shaxsda bolalikdagи qiyonoqlardan qolgan asoratlarni ko'rish mumkin. Yana, ikkalasida ham ota-onasi qaramog'idan chiqish istagi aynan "10 yosh"da paydo bo'lgani, zo'ravonlikdan

dalolatdir. Yaponiyaning sog’liqni saqlash va mehnat munosabatlari vazirligining “2012-yilda bolalar maslahat byurosiga zo’ravonlik masalasida qilingan arizalar soni ”ga ko’ra eng ko’pi boshlang’ich mакtab o’quvchilar 35.2% , o’rta maktab o’quvchilar soni esa keskin kamayib, 14.1%ni tashkil qiladi. 10-11yoshdagи bolalar balog’at davrida bo’lib, aynan shu yoshda jismonan hamda ruhan ota-onadan mustaqil bo’lishga moyillik kuchli deb hisoblanadi. Chunki bu davrda zo’ravonlik ostidan o’z xohishi bilan chiqib ketish imkoniyati ortadi. Tengo va Aomame ham “10 yosh”ida o’z istaklarini oshkor qilib, ota-onasi bilan aloqani uzmoqchi ekanligidan, har ikkisining yosh hayotida ham zo’ravonlik aksini ko’rish mumkin.

Yaponiyada bu asarning 1-va2-kitobi chop etilishidan bir yil avval, ya’ni 2008-yilning aprel oyida bolalar zo’ravonligini oldini olish jamiyatni (2000-yil noyaborda tashkil etilgan)ga o’zgartirish kiritilib, avval zo’ravonlik qayd etilgan holatda ham bolani olib qo’yish mumkin emas bo’lsa, endi bola hayotini himoya qilish maqsadida, bolalar maslahat byurosi yoki shahar va qishloq hokimligining aralashish huquqi tasdiqlandi. Bunga sababchi bo’lgan, bolalar maslahat byurosiga kelib tushgan arizalar soni 2000-yilda 17mingdan ortiq va yildan yilga ortib, 2008-yilda deyarli 2.5 baravar ya’ni 42mingtaga yetdi. Zo’ravonlik keltirib chiqargan o’limlar soni ham 2005-yilda 70ta zo’ravonlik va 86ta o’lim bo’lsa, 2007-yilda 225ta zo’ravonlik va 145ta o’lim, 2008-yilda 107ta zo’ravonlik va 128ta o’limga oshdi. Bolalarda sodir bo’ladigan zo’ravonlik, <oila> deb ataluvchi eng kichik jamiyatda, tarbiya olish o’ta muhim bo’lgan davrada paydo bo’luvchi zulmdir. Bu “millat, irq va din” dan qat’iy nazar “bizlar”ga to’qnash keladigan muammolar emasmi? Bu joyda “sistema” so’zini eslasak, zulmning sababchisi “o’zimiz”ning oilaga, ta’lim va tarbiyaga bo’lgan qarashlarimiz emasmi?

Murakami Haruki “Dong qotgan mo’jizalar mamlakati va dunyoning oxiri”

(1985-yil) asarida turli xil zulmga duchor bo'lsa-da, yashashda davom etuvchi kishi haqida so'zlaydi. Undan tashqari, inson qalbining tubida yashiringan zulmni tasvirlashga qaratilgan: "Muruvatli qushchaning yilnomasi" asari (1994-95yil), metrodag'i zarin fojeasi hikoyalarini o'zida jam qilgan "Yerto'la" (1997-yil) yoki "Uchrashuv joyi" to'plamlari (1998-yil), ota-onasidan qochish aks ettirilgan asar "Kafka sohilda" (2002-yil) kabilar mavjud. Nutqimning boshida aytilib o'tgan, yozuvchining "tuxum" so'zi zaif va kuchsiz insonning qiyofasini, ya'ni murg'ak go'dakni ko'z oldimizga keltiradi. O'zimiz barpo qilgan, ulkan "devor" deb ataluvchi zulmga qarshilik ko'rsatish uchun "qalb" imizning "harorat"ini parvarish qilish makoni deb <oila>ni olishimiz kerak. Men, bolalarda sodir bo'lgan zo'ravonlik qoldirgan iz, mazkur asarda mavjud bo'lмаган <oila> dagi mustahkam aloqani tasvirlash uchun kerak deb o'ylayman. Tengo va Aomame o'z ota-onasidan nafratlanib va o'zligini qabul qilmagan holatda 1984-yildagi davrda yashashar edi.

3. Tengo hikoyasi "Xotira"ning <asosi>

"1Q84" asarida Tengoning hikoyasi 1-KITOB 2-bobdan boshlanadi. Kirish qismida onasining, otasidan boshqa bir kishi bilan bo'lgan yaqinligi Tengoning "1 yarim yosh" idagi birinchi xotirasi deb tasvirlangan. Inson bunday yoshida hodisalarini eslay olarmikin? Juda ham o'ziga xos kirish. Tengo doim shu voqeani yodda tutib, otasi boshqa kishi emasmi? Boshqa so'z bilan aytganda, o'zining "kelib chiqishi"ga nisbatan gumon ko'zlari bilan qaraydi. Biroq onasi bola paytida vafot etgani tufayli otasidan bu haqda so'rashga jur'at qila olmay katta bo'ldi. 2-KITOBning 8-bobida, kasal otasini ko'rgani borgan Tengo birinchi marta bu haqida og'iz ochadi. Ammo, otasi bergen javob umuman boshqa dunyoga tegishli edi.

"Seni dunyoga keltirgan ayol endi hech qayerda emas"

“Hech qayerda emas. Uni vafot etgan demoqchimisiz?”

Otasi bundan ortiq hech narsa demadi.

Tengo chuqur xo’rsindi.

“Unday bo’lsa, mening otam kim?”

“ Bo’shliq. Onang bo’shliq bilan aralashib, seni dunyoga keltirdi. Men bo’lsam, u bo’shliqni to’ldirdim”.

Shu so’zlarni aytib, otasi ko’zlarini yumdi va sukunatga cho’kdi. (2-KITOB 8-bob).

Otasining “bo’shliq”deb bergen javobi, Tengoning gumanini bir zumda yo’q qildi. Otasi biroz avvalgi suhbatida “Birov yaratgan bo’shliqni men to’ldirib keldim. Evaziga men yaratgan bo’shliqni endi sen to’ldirasan. Barchasi galmagal” deb aytadi. U bu gapida Tengoning “xotiralari”, to’ldirilishi kerak bo’lgan “bo’shliq”ning asosi ekanligini , bu bo’shliq onasidan otasiga qolgan meros ekanligini aytadi. Shu paytda Tengo “o’zini sevish”, “birovni sevish” va “sevilish” hislari unda hech qachon bo’lmanagini tushunib yetadi. “Xotira”sining “ildiz”i Tengoga u kutgan “sevgi”aslida “bo’shliq” bo’lganligini va bu yaxshimi, yomonmi, hayotining asosi ekanligiga ishora qildi. (2-KITOB 10-bob). Shundan so’ng Tengo o’zining aslida nima istayotganini tushunib “boshqa insonga aylanayib borayotganini” his qiladi. U otasiga “ Biz qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog’lanmagan bo’lsak-da, siz meni o’z o’g’lingizdek katta qildizngiz. Buning uchun sizdan minnatdorman”(o’sha bob) deya xayrashganida qadrsiz deb bilgan hayotini qabul qilganini ko’rish mumkin. Unga bolalikda zo’ravonlik ko’rgan bola sifatida qarasak, bu uning tiklanishiga tashlangan bir qadamidir.

Tengo o’zining (hamda ota-onasining) “bo’shlig’ini” to’ldirish uchun “sevgi”ni izlay boshlaydi. Sevgi Tengoning o’zini, kelajagini va “oilasi” tarixini tiklaydi, va u niroyat Aomame bilan uchrashadi, lekin ularning keyingi harakatlari “Fukaeri” ismli qiz va uning “Samoviy pilla” nomli asari tomonidan

boshqariladi. Tengo o'sha Fukaerining ta'siri bilan "10 yoshida" Aomameni uchratgan joyini eslaydi. U joy "boshlang'ich maktabning sinf xonasi" bo'lib, u yerda "o'zining o'ng qo'li bilan Tengoning qo'lini qisib", "unga bir dam tikilib turgan" Aomamening qiyofasini eslaydi.

Bu hodisa ayni vaqtda, real joyda sodir bo'layotgan edi. Tashqarida haqiqiy quyosh nur taratar va 10 yoshli bola uning o'zi edi. U o'sha yerning haqiqiy havosidan nafas olib, yog'ochning bo'yog'i, sinf doskasiga yopishgan bo'rning isini his qilar edi. (2-KITOB 14-bob).

"Quyosh nuri" va "is" bilan to'lган sinf xonasi(ning xotirasi) Tengo (keyinroq Aomame) ortga qaytishi kerak bo'lган joy, little people dan yashiringan "kirish eshigi" edi. Yana u yerda Aomame Tengoga "o'zining tuyg'ulari" solingen qutini sovg'a qiladi. Tengo bularni eslagandan so'ng "Aomameni ko'rishi shart" ekanligini birinchi marta anglaydi va Aomame uning hayotida qanday ahamiyatga ega ekanligini, o'sha "quti" ga qanday "tuyg'ular" solinganini bilishi kerakligini tushunadi.

"Men uzoq yo'ldan yurgan bo'lsam kerak. Qanday qilib aytsam ekan... O'sha Aomame deb atalmish qiz uzoq vaqt men uchun juda ahamiyatli bo'lgan. Ahamiyatining kuchliligidan qaytaga buni tushunmagan ekanman" (qisqartma). "Ammo nihoyat tushunib yetdim. U hayoliy, ramziy yoki mavhum emas. U iliq tana va tirik qalbga ega inson".(2-KITOB 16-bob).

"Xotira" "asos"ining jodusidan halos bo'lган Tengo nihoyat hayotini tiklashga kirishadi. Sevish, "sevilish"ga qodir bo'lmay yolg'izlikdan azob chekib kelayotgan Tengoning "xotira" si tubida allaqachon Aomamega nisbatan chuqr muhabbat hissi bor edi. U shu paytgacha noto'g'ri deb o'ylagan hayotini qayta ko'rib chiqadi. Yuqoridagi "Iliq", "qalb" so'zlari Murakami Harukining Quddus mukofotini olish paytidagi so'zlagan nutqi emasmikan? Tengo yangilangan "xotira"sida ota-onasidan zulm ko'rsa-da, o'zining "mavjudligini" qidirgan "10

yosh” lik “tuxumlarni”, ya’ni Aomameni va o’zini ko’radi. O’sha payt Tengo birinchi marta “1Q84”deb nomlangan dunyoga kirib “ikkita oy”ni ko’radi. So’ng, Tengo otasi davolanayotgan kasalxonada “Samoviy pilla” ichida uxlayotgan Aomamega duch keladi. Bu Tengoning tushida ham o’ngida ham sodir bo’lmayotgan g’aroyib voqea edi. Tengo qo’lini cho’zib uxlayotgan qizning qo’lidan tutadi. Bu kichik qo’lcha qachonlardir 10 yoshlik Tengoning qo’lidan mahkam ushlab uni olg’a intilishga undagan. Endi esa bu qo’lchalardan iliqlik taralar edi. Aomame shu haroratni uzatish uchun bu yerga kelganligini Tengo anglaydi. Bu 20 yil avval Aomame uzatgan qutining ma’nosи edi. Nihoyat Tengo quti ichida nima borligini ko’rdi.

“Aomame, men seni albatta topaman”, - dedi Tengo. (2-KITOB 24-bob).

Murakami Haruki “hayotning harorati” insonga “sistema”ni yenguvchi kuch beradi deb hisoblaydi, Tengo va uning ota-onasi shu kuch bilan “bo’shliq”larni to’dirib borishini anglatmasmikan. Bu haqiqatni tushunib yetgan Tengo otasiga boshqa ko’z bilan qaray boshlaydi.

Tengo pilla ichida uxlayotgan Aomameni ko’rgach, uning ismini aytib chaqiradi. Uning ovozi <1Q84> davrida yashayotgan Aomamega yetib borib, u o’z joniga qasd qilishdan qaytadi. Ular 10 yoshdan beri ko’rishmagan bo’lishsa-da, Aomame farzand kutadi. Bu xuddi Bibi Maryamning bokira holida homilador bo’lganiga o’xshaydi.

4. Aomame hikoyasi – nafratdan xalos bo’lish

Aomame Bibi Maryam emas, albatta. Aomame ham bolaligidan ota-onasi va diniy hayotidan nafratlangan. Shu sababli u ulg’aygach ayollarga jismoniy zo’ravonlik qilgan erkaklarga suiqasd qiluvchi yonlanma qotil bo’lib ishlay boshlaydi. 10 yoshida Tengodan “ hayotning harorati”ni olgan Aomamening qalbi endilikda nafratga to’la edi. U “Sakigake” nomli diniy guruh rahnamosini

o'ldirgach, o'zining noplari hayotidan qutulish niyatida o'z joniga qasd qilmoqchi bo'ladi. Xuddi o'sha paytda o'z ismini chaqirayotgan Tengoning ovozini eshitib, niyatidan qaytadi. Va undan farzand kutayotganini his qiladi.

“Biz yaratayotgan asarda bu mitti hayot qanday ahamiyatga ega? U qanday vazifani bajaradi?

Bu mitti hayot omborda o'tirib samoviy pilla yasayotgan little people va qizaloq sahnasiqa katta ta'sir ko'rsatadi. U vujudim ichida muloyim iliqlik va hira zangori rangli nur taratyapti.(qisqartma). Nahotki endi men ona, bu mavjudod esa farzandim bo'lsa”. (3-KITOB 23-bob).

Suhbatdagi “Biz yaratayotgan asar” bu Aomame va Tengoning hayot yo'li, ammo vujudidagi “mitti hayot”, ya'ni go'dak qanday ma'noni anglatishi mumin? “Fukaeri” ning “Samoviy pilla” asarida pilla ichida yotgan Aomame emas, balki “little people”lardan biri edi. Aniqroq aytadigan bo'lsak u odam ham emas, u “yanglish hamda qiyshaygan buyum”, “tabiat xatosi”, ya'ni yovuz zulmning mevasi edi. Aomame yovuzlikka qarshi chiqib,adolat yo'lida bo'lsada qotil sifatida zo'ravonlik qilar, o'sha yovuzlik endi uning o'zida paydo bo'layotgan edi. Bunday insonning vujudidagi “mitti hayot” yaxshilikmi yoki yomonlik?

“Ikkalangizni bir poyezdda bu dunyoga kelgansiz desa ham bo'ladi”,-dedi past ovozda kishi. -Tengo mening qizim bilan birgalikda little people ga qarshi vosita yaratdi. Sen esa, boshqa sabab bilan meni o'ldirmoqchisan. Ammo har biringiz xavf ostidasiz.”

“Lekin qaysidir sabab bilan biz shu yerdamiz, to'g'rimi?”

“Ha, hoynahoy shunday”

“Nima sababdan?”,- dedi Aomame va shu zahoti javob kutish befoyda ekanligini tushundi.

“Eng yaxshi yo'l, ikkalangiz ko'rishib, qo'l ushlashib bu dunyodan chiqib keting”,- deb kishi savolni javobsiz qoldirdi. – Ammo bu juda ham mushkul ish”.

(2-KITOB 13-bob).

Bu suhbat Aomame diniy guruh rahnamosini o’ldirishidan biroz oldin sodir bo’ladi. Guruh rahnamosi Aomame va Tengoning kelajagini bashorat qiladi. O’zining Aomame tomonidan o’ldirilishini oldindan bilib, unga vaziyatdan “chiqish chora”sini o’rgatadi. Ya’ni, ularni muntazam sodir bo’layotgan zo’ravonlik va yovuzlik mayjud bo’lgan “1Q84”nomli dunyodan chiqib ketishga chorlaydi. Aslida diniy guruh rahnamosi bo’lgan bu kishi o’zining qizini (“Fukaeri”) himoya qilish niyatida “sistema” tomonidan boshqarilayotganini tan olgan ota edi. Kishi Aomamega o’zini o’ldirsa, evaziga uni “sevgi”ning mavjudligiga ishontirib (Tengoning mayjudligi) uni yovuz dunyodan chiqarishini aytadi. Aomame o’z navbatida kishining shartiga rozi bo’ladi. Bu harakati Aomame qachonlardir tashlab ketgan otasi bilan murosaga kelganini anglatardi. Tengoning farzandini o’zida olib yurgan Aomame uni kutishda davom etadi. Nihoyat ikkalasi qayta uchrashib, qo’l ushlashgancha “1Q84” dunyosidan 1984-yilga o’tishadi.

Ammo ular kelgan dunyo ham avvalgi 1984-yil emas, balki boshqa bir muhit edi. Shunday bo’lsa ham Aomame: “endi biz yolg’iz emasmiz” — deya, oldinda turgan har qanday “sinov” larga bardosh berishini anglab ibodat qiladi. Bu ibodat qachonlardir otasi zo’rlab ayttirgani emas, balki o’zining yuragidan chiqayotgan so’zlar edi. Tengo kasalxonada “ota”sini kechirib <oila>ga bo’lgan ishonchi paydo bo’lganidek, Aomame ham diniy “rahnamo”ni o’ldirish orqali o’z “ota”sini kechiradi. “1Q84” asari bolaga o’tkazilgan zo’ravonlik keltirib chiqargan oqibatlar bilan boshlangan bo’lsa, Tengo va Aomamening <oila>ga bo’lgan ishonchi tiklanib, “haroratli” “qalb”larida paydo bo’lgan “sevgi” va yangi <oila> bilan yakunlanadi.

5. <Oila>ga yo'

Yuqorida qilingan tahlil orqali, men “1Q84” asarini <oila>ni tiklash haqidagi roman sifatida qabul qilaman. Lekin asardagi Tengo va Aomame ideal <oila> barpo qila olishdimi yo’qmi, bunisi noma'lum. Buni ustiga asar ikki qahramonning farzandi, ya’ni “mitti hayot” dunyoga kelmasidan yakunlanadi. Shu yo’l orqali asar o’quvchiga savol bilan murojaat qilayotgandek tuyuladi.

Aytib o’tilgan “ikkita oy” mavjud bo’lgan, “1984” nomli g’aroyib dunyo Tengo va Aomamening chekkan azoblari va nafratidan paydo bo’lgan parallel olam edi. Ikkisining ham bu olamni tark etishi “ota” so’zi bilan bog’liq edi. Bu xudo jo’natgan vahiyga o’xshaydi. Lekin asarda “ona”ning roli deyarli aks ettirilmagan. Hikoya xoh Tengo, xoh Aomame haqida bo’lsin, suhbat doim <ota> haqida bo’lib, ular “ota”lari davomchilar sifatida tasvirlanadi.

Aslida Yaponiyadagi bola zo’ravonlarining 97.3%ni onalar tashkil qiladi. Mazkur asarda asosiy fikr, real zo’ravonlik bo’lmagani uchun <ona> haqida deyarli hech narsa yozilmagan. Ammo asar aynan zo’ravonlik muammosi orqali ochib berilganligini hisobga olsak, “ona” haqidagi ma’lumotning kamligi taajjubli deb o’ylayman. Nima uchun Tengoning onasi vafotidan oldin (yoki Tengoning tasavvuridagi yo’q bo’lib qolishidan oldin) o’g’liga hech qanday xabar qoldirmadi? Yoki Aomamening onasi qizini kechirmagancha qoldi? Boshqacha qilib aytadigan bo’lsam, o’tmishda bir necha kishiga “suiqasd qilgan Aomame” Tengoga bo’lgan “sevgi”si orqali yengilmay yashashda davom etishi ham “ona” mavzusiga chambachas bog’liq.

Erkak yozuvchi bo’lmish Murakami Haruki “ona” siyemosini to’liq ifoda etadigan hikoya yoza oladimi yo’qmi bilmayman. Ammo, 2000-yildan buyon Yaponiyada bola zo’ravonligi yildan yilga ortib kelyapti. Tug’ilish kamayib borayotgan davrda Yaponiya namunali <oila> modelini yo’qotib, chora ko’rishga tobora qiynalib boryapti. Ayniqsa, 2011-yilda sodir bo’lgan Tokyo zilzilasidan so’ng

<oila> “rishta”lariga yanayam qattiq e’tibor berilyapti. Lekin aynan o’sha “rishta”lar kezi kelganda bolani siqib, hayotdan ko’z yumish darajasiga olib boradigan “qalin arqon”, ya’ni osonlikcha zo’ravonlikka aylanib ketyapti. Hozirgi yapon oilalarining tuzilishi keskin o’zgarib boryapti desam, eshituvchilar tomonidan osongina qabul qilinishi mumkin, biroq bu butunlay to’g’ri gap emas. Haqiqatga tik qarasak, sevilishi lozim bo’lgan “tuxum”, uning “issiq” joni va shu jonni unga hadya qilgan <ona> haqida gap ketmasa, <oila>ning kelajagi noma’lumdir.

(注記) 本稿は『文学論藻』第91号（東洋大学紀要第70集 日本文学文化学編 2017年2月）に掲載した「村上春樹『1 Q 8 4』における〈家族〉表象」を基に、2019年3月6日にウズベキスタン国立世界言語大学で行った講演原稿を同大の大学院生Juraeva Malikaさんにウズベキスタン語に翻訳してもらったものです。村上春樹の作品のウズベキスタン語訳はなく（2019年当時）、このような機会と与えてくださったGanisher Rahimov学長、Ziyayeva Sevara翻訳通訳学部長、Ibragimova Malika日本語講座長など関係各位に、この場を借りて心より感謝申し上げます。（石田仁志）